



## TALABALARDA LIDERLIK QOBILIYATINING SHAKLLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI IJTIMOY- PSIXOLOGIK OMILLAR

Sanayeva Sogdiana Ziyadullayevna

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

2-kurs magistratura talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15656436>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-June 2025 yil

Ma'qullandi: 07- June 2025 yil

Nashr qilindi: 13- June 2025 yil

### KEYWORDS

*liderlik qobiliyati, ijtimoiy-  
psixologik omillar, talabalar,  
psixologik tahlil.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada talabalarda liderlik qobiliyatining shakllanishiga ta'sir qiluvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash va ularni mustahkamlash uchun amaliy tavsiyalar berish uchun yozildi. Tadqiqotda Qarshi Davlat Universitetining filologiya fakulteti talabalari ishtirok etdi. So'rovnomalar, psixologik testlar va intervyular orqali olingan ma'lumotlar matematik-statistik tahlil yordamida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari oilaviy muhit, talabalar guruhi bilan muloqot va o'qituvchining psixologik yondashuvi liderlik qobiliyatini shakllantirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatdi.*

Bugungi kunda jamiyatda yetakchilik sifatleri talab qilinadigan mutaxassislar tayyorlash dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki, globallashtirish jarayonida yoshlar nafaqat o'z mutaxassisligi bo'yicha yetuk bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari, balki liderlik qobiliyatiga ham ega bo'lishlari zarur. Ayniqsa, universitet talabalari orasida liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish ularning kelajakda samarali ishlashlari, tashabbuskor bo'lishlari va jamiyatga faol hissa qo'shishlari uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Psixologiya fanida liderlik qobiliyati — shaxsning boshqalarga ta'sir ko'rsatish, guruh faoliyatini boshqarish va tashkil qilish, shuningdek, o'z g'oyalari ilgari surishda tashabbuskor bo'lish qobiliyati sifatida izohlanadi. Talabalik davri esa liderlik qobiliyatining shakllanishida juda muhim davr hisoblanadi. Chunki aynan talabalik yillarida yoshlar ijtimoiy faollik, mustaqil fikrlash, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi sifatlarni rivojlantiradilar.

Shuni ta'kidlashimiz joizki, talabalarda liderlik qobiliyatining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar turlicha bo'lib, ular psixologik va ijtimoiy jihatdan hamda talabaning shaxsiy xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Jumladan:

- Oila va yaqin atrof-muhitning qo'llab-quvvatlashi
- Talabalar jamoasida o'zaro muloqot va hamkorlik
- O'qituvchilarning liderlik sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyati
- Motivatsiya, o'z-o'zini baholash va o'zaro munosabatlar tizimi kabi omillar yetakchi o'rin tutadi.

Ushbu maqolada aynan **talabalarda liderlik qobiliyati shakllanishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarning o'rni** tahlil qilinadi hamda talabalar liderligini rivojlantirish bo'yicha psixologik tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qilinadi.

## 2. Nazariy qism

Ilmiy asoslarga tayanishimizga ko'ra, liderlik qobiliyatini o'rganish 1950-yillardan rivojlanib boshladi. Liderlik tushunchasining mehnat taqsimoti va ierarxiyaga asoslangan modeli Rosch va Caza tomonidan o'rganilgan. 1986-yilda AQSHning Ta'lim standarti agentligi talabalar uchun liderlik standartlarini ishlab chiqdi.

Talabalarda liderlik qobiliyatining shakllanishi psixologik nuqtai nazardan ko'plab omillar bilan uzviy bog'liq. Jumladan, oilaviy tarbiya, tengdoshlar guruhi bilan muloqot, o'qituvchining rahbarlik qilishi va talabalar jamoasidagi ijtimoiy muhit liderlik sifatlarini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi (Bass & Avolio, 1994; Goleman, 1998). Bundan tashqari aytib o'tishimiz kerakki, talabalik davrida liderlikni shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan deb guruhdagi mavqe, kommunikatsiya sifati, ijtimoiy qo'llab quvvatlash, stressga chidamliligi kabi omillardir. Psixologik adabiyotlarda liderlikni demokratik, avtoritar va laissez-faire uslublarga ajratish amaliyotda keng qo'llaniladi (Lewin, Lippitt & White, 1939-yillarda o'rgangan.). Shuningdek, Daniel Goleman tomonidan ishlab chiqilgan emotsional intellekt nazariyasi ham liderlik qobiliyatining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi (Goleman, 1995).

## 3. Metodologik qism

### 3.1. Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Talabalarda liderlik qobiliyatining shakllanishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash va tahlil qilish.

### 3.2. Tadqiqot metodlari

- So'rovnoma
- Daniel Goleman "Emotsional intellekt" testi
- Bass va Avolio "Liderlik uslublari" testi
- Intervyu
- Matematik-statistik tahlil (SPSS)

### 3.3. Tadqiqot ishtirokchilari

150 nafar Qarshi Davlat Universitetining filologiya yo'nalishidagi 1-4 kurs talabalari.

### 3.4. Tadqiqot o'tkazilishi

So'rovnomalar, testlar va intervyular orqali ma'lumot yig'ildi va tahlil qilindi.


### 3.5. Ma'lumotlarni tahlil qilish SPSS yordamida korelyatsion tahlil.

## 4. Natijalar va muhokama

So'rovnoma natijalari talabalar liderlik qobiliyatining shakllanishiga oilaviy muhit (42%), talabalar guruhi bilan muloqot (30%) va o'qituvchilarning psixologik yondashuvi (18%) yetakchi rol o'ynashini ko'rsatdi. Sinaluvchilarning sinflar o'rtasida tafovutlar aniqlanmadi. Ko'rsatkichlar bir-biriga juda yaqin hisoblanadi. Lekin, ta'lim bosqichlar o'rtasidagi va oiladagi nechinchi farzandligiga ko'ra tafovutlar aniqlandi. Liderlik darajasi shkalasiga ko'ra 3-4 farzandlarda liderlik darajasi yuqori ekanligini qayd etdi. 1-2 farzandlarda esa liderlik darajasi quyi ekanligini qayd ko'rsatdi.

Daniel Goleman testi natijalari talabalar o'zini boshqarish va emotsional barqarorlik borasida yetarli darajada shakllanganliklarini ko'rsatdi. Bass va Avolio testi esa demokratik

liderlik uslubiga moyillikni aniqladi (70%). Korelyatsion tahlil oilaviy muhit bilan liderlik qobiliyati o'rtasida ( $r=0.56$ ), talabalar guruhi bilan muloqot ( $r=0.48$ ) va o'qituvchilar bilan muloqot ( $r=0.35$ ) o'rtasida ijobiy bog'liqlikni tasdiqladi.



## 5. Xulosa va tavsiyalar

### Xulosa:

Emperik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarda liderlik qobiliyati individual psixologik xususiyatlar (masalan, tashabbuskorlik, mustaqillik, empatiyam, o'ziga ishonch, kommunikativlik) bilan chambarchas bog'liq.

- Talabalarda liderlik qobiliyatining shakllanishiga oilaviy muhit va talabalar guruhi bilan muloqot yetakchi rol o'ynaydi.

- Talabalarining emotsional intellekti va demokratik liderlik uslubi rivojlangan.
- O'qituvchilarning psixologik qo'llab-quvvatlashi ham liderlik qobiliyatining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

### Tavsiyalar:

- Universitetlarda psixologik treninglar va seminarlar tashkil qilish.
- Ota-onalarni liderlik rivojiga jalb qilish.

- Talabalar o'rtasida guruhli ishlash va fikr almashishni rivojlantirish.
- O'qituvchilar tomonidan talabalarni motivatsiya qilish va psixologik yordam ko'rsatishni kuchaytirish.

-ayollar orasida liderlik qobiliyati rivojlanishi uchun maxsus dastur ishlab chiqilishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bass, B. M., & Avolio, B. J. (1994). Improving organizational effectiveness through transformational leadership. Sage.
2. Goleman, D. (1995). Emotional intelligence. Bantam Books.
3. Goleman, D. (1998). Working with Emotional Intelligence. Bantam Books.
4. Lewin, K., Lippitt, R., & White, R. K. (1939). Patterns of aggressive behavior in experimentally created social climates. Journal of Social Psychology, 10, 271-301.
5. Yukl, G. (2010). Leadership in Organizations. Prentice Hall.